



“TRANSMILLIY NARKOTAHDIDLARGA QARSHI KURASHISHDA JAMOAT SALOMATLIGI VA XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASH” STRATEGIYALARI

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY**

KONFERENSIYA MATERIALLARI TO‘PLAMI



**Buxoro shahar
2026 yil**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

**TRANSMILLIY NARKOTAHDIDLARGA QARSHI
KURASHISHDA JAMOAT SALOMATLIGI VA XAVFSIZLIGINI
MUSTAHKAMLASH STRATEGIYALARI**

**respublika ilmiy-amaliy anjuman
materiallari**

2026-yil, 18-iyun

Buxoro – 2026

10. Krysko V. G. Etnicheskaya psikhologiya. - Sankt-Peterburg: Piter, 2019. - 432 s.
11. Bromley Yu. V. Ocherki teorii etnosa. - Moskva: Nauka, 1983. - 412 s.
12. Russell D. W. UCLA Loneliness Scale (Version 3): reliability and validity // Journal of Personality Assessment. - 1996. - Vol. 66(1). - P. 20–40.
13. Zimet G. D. et al. The Multidimensional Scale of Perceived Social Support // Journal of Personality Assessment. - 1988. - Vol. 52(1). - P. 30–41.
14. Karimova V. M. Oila psixologiyasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. - 286 b.

Xaytova Farida Kuchkarovna
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Mustaqil izlanuvchisi

YOSH BOLALAR NUTQI RIVOJLANISHINING O`ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya. Mazkur maqolada yosh bolalar nutqi rivojlanishining o`ziga xos xususiyatlari, nutqning shakllanish bosqichlari hamda unga ta'sir etuvchi psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillar tahlil qilingan. Shuningdek, bolalarda lug'at boyligini oshirish, og'zaki nutqni rivojlantirish va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning samarali usullari yoritilgan. Tadqiqot natijalari erta yosh davrida nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bolaning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy kamolotida muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: yosh bolalar, nutq rivojlanishi, nutq faoliyati, lug'at boyligi, kommunikativ kompetensiya, psixologik rivojlanish, maktabgacha ta'lim, til o'rganish, nutq madaniyati, ijtimoiy muhit.

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности речевого развития детей раннего возраста, этапы формирования речи, а также психологические, педагогические и социальные факторы, влияющие на данный процесс. Особое внимание уделяется вопросам обогащения словарного запаса, развития устной речи и формирования коммуникативных компетенций у детей. Результаты исследования показывают, что поддержка речевого развития в раннем возрасте играет важную роль в интеллектуальном, социальном и личностном становлении ребенка.

Ключевые слова: дети раннего возраста, речевое развитие, речевая деятельность, словарный запас, коммуникативная компетентность, психологическое развитие, дошкольное образование, освоение языка, культура речи, социальная среда.

Abstract. This article examines the specific characteristics of speech development in young children, the stages of speech formation, and the psychological, pedagogical, and social factors influencing this process. Particular attention is paid to vocabulary enrichment, the development of oral speech, and the formation of communicative competencies. The findings indicate that supporting speech development during early childhood is essential for a child's intellectual, social, and personal growth.

Key words: young children, speech development, speech activity, vocabulary enrichment, communicative competence, psychological development, preschool education, language acquisition, speech culture, social environment.

Bola nutqi inson hayotining dastlabki yillarida shakllanadigan murakkab va bosqichli jarayondir. Bu jarayon tilga oid bilimlarning ijtimoiy muhit orqali o'zlashtirilishi, muloqotga bo'lgan ehtiyoj va nutq faoliyatining asta-sekin rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari uning fiziologik, psixologik, ijtimoiy va lingvistik omillar bilan chambarchas aloqadorligini ko'rsatadi. Psixolingvistik nuqtai nazardan qaralganda, bola nutqi tafakkur bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. L.S. Vigotskiy fikricha, bola nutqi dastlab ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, keyinchalik ichki nutqqa aylanadi. Bu esa uning fikrlash jarayoni va tushunchaviy dunyosining kengayib borishini anglatadi. Shu sababli, bola nutqining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda

psixik rivojlanish darajalari, idrok, eslab qolish, e'tibor kabi kognitiv omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutqiy rivojlanishning har bir bosqichida bolaning til birliklarini o'zlashtirish darajasi, ularning mazmunan to'g'ri ishlatilishi, gap tuzish malakasi va kontekstual muloqotga kirishish qobiliyati farq qiladi. 2 - 3 yoshli bolalarda nutq fonetik jihatdan cheklangan, so'zlar soddalashtirilgan va semantik jihatdan tor doiraga ega bo'lsa, 4 - 5 yoshdan boshlab bola murakkab gaplar tuzishga intiladi, o'xshatish, qiyoslash, sabab-oqibat munosabatlarini ifodalashga urinadi. Shu bosqichlarda sintaktik tuzilmalar soni ham ortadi.

Bolalar nutqining yana bir o'ziga xos jihati – bu individuallik va emotsional ifodalilikdir.

Bola nutqida ko'pincha subyektiv baholash, hissiy ohang, obrazli ifodalar uchraydi.

Bolalar nutqining rivojlanishida so'z boyligining kengayishi muhim ahamiyatga ega.

Qiyoslash jarayoni orqali bolalar yangi so'zlarni o'zlashtirishda sinonimlar va antonimlar o'rtasidagi farqlarni tushunadilar. Masalan, biror narsa haqida gapirganda, ular o'xshash yoki qarama-qarshi so'zlarni ishlatib, tasvirni aniqroq qiladilar: “katta” va “kichik” so'zlari bolalar uchun bir-biriga qarama - qarshi tushunchalar bo'lib, ularni tanishish va ajratish jarayonida qiyoslash orqali o'rganadilar. Bolalar nutqi rivojlanishida qiyoslashning o'rni juda katta.

Qiyoslash bolalar nutqining lingvistik rivojlanishiga va ularning tilni o'rganishdagi muvaffaqiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalar o'zlarining so'z boyligini kengaytirish va grammatik tuzilmalarni o'rganishda qiyoslashni muhim vosita sifatida ishlatadilar. Bu jarayonda ular o'xshashlik va farqlarni aniqlash orqali yangi tushunchalarni o'zlashtiradilar.

Bundan tashqari bolalar nutqida sintaktik tuzilmalar o'z rivojlanishini davom ettiradi. Buning asosiy xususiyati shundaki, bolalar nutqida grammatik xatoliklar bo'lishi mumkin, lekin ular bu xatoliklarni qiyoslash orqali tuzatadilar. Misol uchun, ular kichik yoshlarda “men boradi”, “dadam ertaga keldi”, “ertalabdan boya aytaman” kabi oddiy gap tuzishda xatoliklarga yo'l qo'yishlari mumkin, lekin vaqt o'tishi bilan to'g'ri grammatik shakllarni o'zlashtiradilar.

Umuman, bola nutqining shakllanishi 3-11 yoshgacha bo'lgan davrlarni qamrab oladi. Bolaning nutqi aynan ana shu davrlarda shakllanib, individual nutqning asosiy ko'rsatkichlarini hosil qila boshlaydi.

3-7 yosh bolalar nutqining rivojlanishi.

Maktabgacha bolgan davrda bolalar birinchi navbatda artikulyatsion jixatidan oson talaffuz etiladigan: lab-til undoshlari (p, b, m, f, v) va boshqalarni organa boshlaydilar. Artikulyatsion jixatidan talaffuz etish qiyin bolgan: shivirlovchi, sirgaluvchi (s, z, sh, j, ch) va sonor (r, l)til orqa (k, g) tovushlarni talaffuzini egallashga qiynaladilar. Shuning uchun bolalar bu tovushlarni nutqda notogri qollaydilar yoki talaffuz etmaydilar. 3-7 yoshgacha bolgan davrda bolalarda eshitish malakalari rivojlanib boradi, bu esa bolaning ozi talaffuzini nazorat qilishga imkoniyat yaratadi. Bazi xollarda bolalar oz kamchiligini togrilaydilar. Ularda fonematik idrok shakllanib boradi.

Bu davrda lugat boyligining osishi davom etadi. Bolaning 4-6 yoshida uning aktiv lugati 3000-4000 ta sozgacha yetadi. Lugat boyligi osib borishi bilan birgalikda nutqning grammatik tomoni ham rivojlanib boradi. Bola xayotining 4-yiliga kelib, ular oz nutqlarida sodda va murakkab gaplarni qollay boshlaydilar. 5 yoshga kelib esa qoshma gaplardan erkin foydalana oladilar. 5 yoshli bolalar qoshimcha savollarsiz xikoya va ertaklarni aytib berish qobiliyatiga ega boladilar. Bu davrda fonematik idrok sezilarli darajada rivojlanadi.

Bola avval unli va undoshlarni, song sonor, shovqinli va sirgaluvchi tovushlarni ajrata boshlaydi. Normada 4 yoshli bola barcha tovushlarni ajrata olishi, unda fonematik idrok shakllangan bolishi lozim. Bu vaktga kelib, tovushlarni togr talaffuz ozing shakllanishi tugallanadi va bola har tomonlama togr aniq gapira oladi. 3 yoshda: Soz boyligi 800 ta sozga yetadi va 5-6 ta sozdan iborat jummalarni ishlata oladi. Bola oz ismini, jinsini va yoshini ayta oladi. Oddiy jummalarni yaxshi tushunadi. Masalan, kitobni stol ustiga qoy, qoshiqni kosaga sol kabi topshiriqlarni bajara oladi. Bola qisqa hikoya va ertaklarni rasmlar orqali yoki rasmlarsiz tushunadi va ularga oid savollar bera oladi.

4-5 yoshda: Bolaning soz boyligi 1500-2000 taga yetadi. Bolalarcha harflarni yumshatib gapirishi yoqoladi (topto orniga koptok, yigayapti orniga yiglayapti kabi). 4-5 yoshdagi bolalarning meyorida nutqiy rivojlanishi natijasida ularning lugatida koproq sifatlar paydo boladi. Sababi, bola

nutqida buyumlarning sifatlari va belgilari aniqroq ifodalanadi. Narsa buyumning rangi endi faqat kok va qizil emas, balki pushti, binafsha, moviy va toq sariq ham bolishi mumkin. Koplik qoshimchalaridan foydalana oladi (mevalar, ortoqlarim, qalamlar kabi).

5-7 yoshli bolalarning nutqiy rivojlanishining oziga xos xususiyatlari

7 yoshga kelib bolaning soz boyligi 3500 ta sozga yetadi. Bunda mazmunli sozlar soni kopayadi. Bolada tilga bolgan etibor oshadi. Atrof-muhitni soz bilan baholay olish qobiliyati shakllanadi. Bolaning psixologik holati maktabga tayyor boladi.

Biz siz bilan 0-7 yoshgacha bo'lgan bolalarning nutqiy rivojlanishini ko'rib chiqdik va xulosa o'rnida shuni ayta olamiz-ki, Agar siz farzandingizning meyorida rivojlanish meyorlarini bilsangiz, bu farzandingizdagi meyardan orqada qolishlar yoki biror bir nuqsoni erta aniqlashga va o'z vaqtida bartaraf etishga zamin yaratadi. Farzandingizning rivojlanishi boyicha shubhalarangiz bolsa, mutaxassisga murojaat qilishdan tortinmang, farzandingizning soglom kelajagini taminlang.

Ta'limiy o'yinlar ahamiyati

Ta'limiy o'yinlar bolalar nutqini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular so'z boyligini oshiradi, grammatik tuzilmalarni shakllantiradi, mantiqiy fikrlashni o'stiradi va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu esa bolalarning ijodiy va ravon gapirishiga yordam beradi. Bolalarning intellektual, ijtimoiy va nutqiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida ta'limiy o'yinlardan keng foydalanilmoqda. Ushbu o'yinlar nafaqat o'quv jarayonini qiziqarli va interaktiv qilishga, balki bolalarning fikrlash, muloqot va mustaqil ifoda qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning nutqiy va ijodiy salohiyatini oshirish maqsadida bir qator ta'limiy o'yinlar keng qo'llanilmoqda.

Jumladan, "Jumboqli ertak" o'yini bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish bilan birga, ularning so'z boyligini kengaytirishga yordam beradi. Ushbu o'yin davomida bolalar matn mazmunini tahlil qilish, so'zlar orasidagi mantiqiy bog'liqlikni tushunish va yangi iboralarni o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, "Sirli xarita" o'yini bola tasavvurini kengaytirib, og'zaki bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bolalar xarita bo'ylab harakatlanish jarayonida o'z fikrlarini izchil ifodalash, tasviriy fikrlash va nutqiy faollikni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu o'yin bolalarni tasavvur qilish va og'zaki nutq orqali fikrlarini bayon etishga rag'batlantiradi.

Bundan tashqari, "Muvaffaqiyat yo'li" o'yini bolalar nutqiy faolligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu o'yin orqali bolalar jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi, o'z fikrlarini aniq ifodalashni o'rganadi hamda muloqot madaniyatini rivojlantiradi.

Nutqiy rivojlanishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan yana bir ta'limiy o'yin – "Tovushlar musobaqasi" bo'lib, u bolalarning fonetik eshitish qobiliyatini oshirishga qaratilgan. Ushbu o'yin jarayonida bolalar tovushlarni farqlash, aniq talaffuz qilish va eshitish orqali ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu o'yin til o'rganish jarayonida muhim bo'lgan fonetik eshitish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlarda esa bolalarning yosh, individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. O'yinda o'yin tempi va ritmi katta rol o'ynaydi, juda sekin va bir tekisdagi temp bolani ko'p kuttiradi, juda tez temp esa bolalarni hayajonga soladi, turli bahs-munozaralarga olib keladi. Kattalar tomonidan o'yin ishtirokchilarini to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega.

Mazkur o'yinlar bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida nutqiy mashg'ulotlarning samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida keng qo'llanilmoqda. Ular bolaning nutqiy salohiyatini kompleks rivojlantirishga xizmat qilib, muloqot qobiliyatini shakllantirish, so'z boyligini kengaytirish va grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzish ko'nikmalarini mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'limiy o'yinlarning foydalari:

So'z boyligini oshiradi: O'yinlar orqali bolalar yangi so'zlarni o'rganadi, ularni to'g'ri ishlatishni mashq qiladi (masalan, hayvonlar, narsalar haqida o'yinlar).

Nutqning grammatik tuzilishini shakllantiradi: O'yinlar gaplarni to'g'ri tuzish, gapdagi so'zlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishga yordam beradi.

Mantiqiy fikrlashni o'stiradi: O'yinlar ("Kim ko'p narsani biladi?", "Rasm chizish" o'yinlari kabi) fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Ijodkorlik va tasavvurni rivojlantiradi: O'yinlar bolalarni turli rollarga kirishga va o'z hayollarini ifodalashga undaydi.

Muloqot ko'nikmalarini yaxshilaydi: Jamoaviy o'yinlar bolalarning bir-biri bilan suhbatlashish, o'z fikrini bildirish va boshqasini tinglashga o'rgatadi.

Diqqatni jamlashni oshiradi: O'yinlar diqqatni bir joyga to'plashga va uni ushlab turishga o'rgatadi.

O'yinchoqlar.

Buyuk rus olimi A. M. Gorkiy "O'yinchoq, avvalambor bolani hayratda qoldiradi va bu tuyg'u tushunishning boshlanishidir". O'yinchoq bolani atrof-muhit bilan tanishtiradi, ularni o'rgatadi, taassurotlarini mustahkamlaydi va muloqotga bo'lgan ehtiyojni qondiradi. O'yinchoq bola tug'ilganidan to 3 yoshigacha bo'lgan davrda katta ahamiyatga ega. Chunki ular o'ynash davomida o'zlarini rag'batlantiradi, o'yin tashkil etish qonunqoidalarini o'rganadi: qo'g'irchoq bilan ular ona va qiz bo'lib o'ynashsa, raketa yoki mashina, samolyot bilan ular haydovchi rolini o'ynashga kirishib ketadi. O'yinchoqlar orqali o'yin qay tarzda ketayotganini va nima maqsad borligini tushuntira oladi. Bola ota-onaga ichidagi his tuyg'ularini o'yin orqali yetkazib beradi. Bola o'yin mazmuni o'yinchoqqa bog'liqligini bilib, uning ijodiy faoliyatini shakllantiradi.

Bola o'yinchoq o'ynash orqali o'zini dunyosini shakllantirib, yangi g'oyalar bilan o'rtoqlashadi va biz shu g'oyalarni rivojlanishiga yordam berishimiz kerak. O'yinchoqlar bolalar uchun eng kuchli tarbiyaviy ta'sirga ega, chunki hamma narsalar xilma-xilligi bilan tasvirlanadi. Hayvonlar, o'simliklar, transportlar, turli xil asbob-anjomlar, har xil shakllar, hattoki, inson o'zi ham qo'g'irchoqlar sifatida o'yinchoqqa aytantirilgan. O'yinchoqlar bola hayotida ilk hayot tasavvurlarni shakllantirib, asta sekinlik bilan rivojlantiradi. Bola o'yinchoq o'ynab o'sha muhitga kirishadi. Misol qilib oladigan bo'lsak bola shifokor qo'g'irchog'ini o'ynash vaqtida o'zini shifokorday gaplarini gapirib, bemorlarga yordam berishga urinishadi. O'yinchoqlar to maktabga chiqqunicha bola hayotida katta o'rin egallaydi. Bolalar yoshi kichkina paytida barcha o'yinchoqlarni o'ynashga urinadi. Keyinchalik yoshi ulg'aygan sari o'yinchoqlarni saralay boshlaydi. O'zlariga ayni vaqtda nima kerakligini yon-atrofdagilarga o'yinchoqlar orqali yetkazadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kichik guruh (3-4 yosh) bolalariga asosan qo'lda bemalol o'ynashga mo'ljallangan o'yinchoqlar o'ynaladi. Tig'li, uchli o'yinchoqlar bola hayoti uchun xavfli o'yinchoqlar o'ynashi mumkin emas. O'rta guruhda (4-5 yosh) bolalar kichik guruhdan farqli ravishda ozgina murakkabroqdir. Unda bolalar tarbiyachi bilan birga o'yinchoqlar orqali rollar ijro etishlari mumkin. Ijro etayotgan rollari orqali bolada nutq ham rivojlanadi. Yangi so'zlar o'rganadi. Talaffuzidagi kamchiliklar ham asta-sekin to'g'irlanib boriladi. Katta guruh (5-6 yosh) bolalar bemalol o'zlari o'yinchoq o'ynashlari mumkin bo'ladi. O'zlari orasida rollar bo'lib olinib turli o'yinlar va o'yinchoqlar orqali rollar ijro etiladi. Tayyorlov guruhi (6-7 yosh) bolalar endi o'yinchoqlarni bemalol tanlay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mo'minova L.R., Ayupova M.Yu. Logopediya. T., "O'qituvchi", 1993 .
2. G.Jalolova: "Bolalarni maktabga tayyorlashda no-an'anaviy o'yinlardan foydalanish" Tashkent 2004
3. A.A. Turg'unov, D.SH.temirov: "Bolalarni maktabga psixologik tayyorlash" Tashkent 2020
4. R.G.Rahmonqulova: "Psixologlar uchun metodik qo'llanma" Tashkent 2016
5. O.SH.Teshaboyeva: "Inson ruhiyatini o'rganamiz"

Odinayev Tolibjon Toyirovich Tibbiyot kolleji talabalari kasbiy motivatsiyasining kasbiy identifikatsiya rivojlanishiga ta'siri	473
Aytmuratov Baxtiyar Turganbaevich Talabalarda metakognitiv va metarefleksiv kompetensiyalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari	478
No'monov Ahror Azamat o'g'li Fanlarni chuqur o'zlashtirishni ta'minlovchi zamonaviy metodik texnologiyalarning evolyutsiyasi va ularning samaradorligini pedagogik baholash	482
Karimova Shaxnoza Uktamovna Transport tizimlarini samarali rivojlantirish: Muammo va yechimlar	485
Sadullayeva Zarnigor To'lqinjonovna Talabani shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini loyihalashda ijodiy ta'lim muhiti	490
Razzoqova Shaxnoza Jo'rayevna Nodavlat ta'lim muassasalari talabalarida o'quv jarayoniga moslashuvni belgilovchi ijtimoiy-psixologik omillar	494
Erimmetova Nafisa Bahromovna Kiberijtimoiylashuv sharoitida yosh ota-onalarda emotsional yolg'izlikning namoyon bo'lishi: ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik yondashuv	498
Xaytova Farida Kuchkarovna Yosh bolalar nutqi rivojlanishining o'ziga xosligi	504
Adizova Gulnavoz Farhodovna Noto'liq oila farzandlarida agressivlik, xavotir va koping strategiyalarining o'zaro aloqadorligi	508
Kalandarov Jahongir Texnikum o'quvchilarida kasbiy o'zini anglashni rivojlantirishning psixologik jihatlari	511
Sobirov Umid Baxtiyorovich Tusiy nosiriddinning narkotahdidlarning insonga ta'siri borasidagi qarashlari	514
Ernazarova Dilnoza Xushvaktovna Mechanisms for preparing children with hearing impairments for inclusive education in the conditions of an educational cluster	517
Каримова Зулфия Абдурахмановна Особенности развития перцептивных навыков у детей различных категорий с особыми образовательными потребностями	520
Xaytova Farida Kuchkarovna Ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarini korreksiyalashda senso-motor o'yinlarning ahamiyati	523
Fozilova Zarnigor Jamshid qizi Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirishda badiiy gimnastika mashqlarining samaradorligi	528
Oblakulov Anvar Erkinovich Kasbiy va psixologik faoliyatda sportning o'rni	532
Axmedova Munavvar Numanjanovna Nutq rivojlanishidagi buzilishlar va bolalarda ijtimoiy identifikatsiya jarayonlarining psixologik xususiyatlari	534
Valiyev Abdurafik Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarida harbiy-kasbiy motivatsiyaning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar	537
Mirzayeva Sayyora Rustamovna Yoshlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorlash masalalari	542
Masharipova Saida Rahimovna	545

TRANSMILLIY NARKOTAHDIDLARGA QARSHI KURASHISHDA JAMOAT SALOMATLIGI VA XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASH STRATEGIYALARI

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN
TO‘PLAMI**

Muharrir: Sh.Sh.Rustamov
Texnik muharrir: Sh.O.Dehqonboyev

Nashriyot litsenziyasi AI № 178.08.12.2010
Adadi 10 nusxa. Buyurtma № 260. Hajmi 612 bet. Format A4. 2026-yil.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ
«Durdona» nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko’chasi, 11-uy
“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.